

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR BILAN IJTIMOYIY ISH

Suyumova Marxabo

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarga berilayotgan e'tibor ularning manfaatlari qadr-qimmatlarini qanchalik ustunligi va shu bilan birgalikda ularga berilayotgan imtiyozlar, ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam va ijtimoiy ta'minot yuzasidan fikr yuritilgan. Bundan tashqari nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlari ularning manfaatlari davlat qolaversa butunjahon himoyasida ekanligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *nogironlik, Inson, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, nogironligi bo'lgan shaxslar, raebilitatsiya.*

Inson dunyoga kelibdiki albatta turli xil hodisalarga turli xil shaxslarga duch kelgan ular ichida albatta nogironligi bo'lgan shaxslar ham bo'lishi hayratlanarli hodisa emasdir. Nogironlik deyilganda bizning hayolimizga shunday ta'rif keladi: Nogironlik bu – kasallik, mayib-majruhlik, aqliy yoki jismoniy shikastlanish , baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddatga mehnat faoliyatidan ayrilish tushuniladi. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi uchun ijtimoiy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar nogiron deb yuritiladi va yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni aniqlash uchun Nogironlik Tibbiy mehnat ekspertizasi komissiyasi (TMEK) tuzilgan va mana shu komissiya tomonidan aniqlanadi. Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) -nogironlik va uning sabablarini va darajalarini aniqlab beradigan komissiya hisoblanadi . Bu komissiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-noyabrda 317-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq faoliyat yuritadi. Tekshirish jarayonida nogironligi bo'lgan shaxslar darajalarga qarab guruhlariga bo'lib chiqiladi. Ular mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linib, vaqtincha (6—12 oy) yoki muddatsiz qilib tayinlanadi. 1-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqaning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar; 2-guruh Nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat'i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar; 3-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Nogironlar davlat nafaqasi bilan ta'minlanadi, zarur bo'lganda davolanadi, ularga protezlar beriladi, ishga, maxsus maktablarga joylashtirish uchun sharoit yaratiladi. Nogironlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish orqali faol hayotga, mehnatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi.³¹ Yurtimizdagi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlari va ularning muommolari , kamchiliklari hammasi davlat himoyasidadir.

³¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nogironlik><https://uz.wikipedia.org/wiki/Nogironlik>

O'zbekistonimizda nogironligi bor shaxslarni himoya qilish va ularning manfaatlarini o'ylagan maqsadda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qonun ,qarorlar tuzila boshlandi lekin mana shu qonunlar oldidan birinchi navbatda komissiya tuzildi. Bu komissaiyaning asosiy maqsadi:nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, imkoniyatlar yaratish ,huquqiy himoya qilishdan iboratdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlari 2019 yil 2 avgustda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'risida"gi Qonun va boshqa bir nechta qonunlardan iboratdir.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplarini quyidagilar tashkil etadi:

-nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini,shaxsiy mustaqilligini,jumladan tanlash erkinligini hurmat qilishdir;

-nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

-nogironligi bo'lgan shaxslarni rivojlanayotgan qobilyatlarini hurmat qilish;

-jismoniy muhitning qulayligi;

-nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga jalb qilish mana shu prinsiplar nogironligi bo'lgan shaxslarni asosiy prinsiplari hisoblanadi. Jamiyatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni qadr-qimmatini,shaxsiy mustaqilligini, ularning qobilyatlarini ,tanlash erkinligini hurmat qilish va ularni ijtimoiy himoya tomonidan himoyalash qonun va huquqlarimizda belgilab qo'yilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning masalalari butun jahonda ham bir necha marotaba dolzarb masalalardan biri bo'lgan jumladan:Birlashgan Millatlar Tashkilotida bu sohadagi xalqaro hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar ko'zdan kechirilgan. Darvoqe nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bilan birgalikda ularga ijtimoiy ta'minot xizmatlarini ham ko'rsatish ijtimoiy xodimlarning va shu bilan birgalikda davlat hizmatchilaring vazifalari desak adashmagan bo'lamiz. Ijtimoiy ta'minotga biz nafaqa,pensiya,moddiy yordam pullarini,o'rindiqli aravachalarni,protez-ortopediya buyumlari,ovoz kuchaytirgich apparatlari,maxsus harfli matbaa nashrlari,signalizatorlarni misol qilib keltirishimiz o'rinlidir. O'zbekiston respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotida" gi qonunini ijtimoiy ta'minotga misol tariqasida keltirishimiz mumkun. Bu qonunning III bobi nogironlik pensiyalari deb nomlanadi va 15-19 moddagacha Nogironligi bo'lgan shaxslarni qanday pensiyaga chiqish tartiblari ularga beriladigan imtiyozlari haqida belgilab qo'yilgan. Nogironlik pensiyalari I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga va shu bilan birgalikda Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo'lgan III guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiya tayinlanadi. Hozirgi kunda nogironlik nafaqasi 747 ming so'mni tashkil etmoqda. Mana shu jarayonlarni biz ijtimoiy ta'minot deyishimiz o'rinli bo'ladi. Mana shunday ijtimoiy yordamlar respublika budjetiva mahalliy budjetlar ,O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi,nogironlarni jtimoiy himoya qilish jamg'armalari mablag'lari ,shuningdek fuqarolarning ixtiyoriy badallari hisobidan nogironligi bo'lgan

shaxslar uchun moddiy mablag'lar ajratiladi. Bundan tashqari nogironligi bo'lgan shaxslarni uy-joy bilan bo'lgan muommolarini bartaraf etishiga ko'maklashish, uy -joy olishi, qurishi va undan foydalanishi bo'yicha imtiyozlar uy-joy to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan.

Jahon soliqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga qaraganda, bugungi kunda yer yuzida 1 milliarddan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qiladi. Bundan ko'rinib turibiki aholining keksayib borayotgani va surunkali kasalliklarning ortib borayotgani ham nogironlar soning ko'payishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda aholining ehtiyojmand qatlamiga qaratilgan e'tibor sezilarli darajada o'sdi desak adashmagan bo'lamiz. Bunga misol qilib 2023 yil 1 iyuldagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy hodimlar guruhlarini tashkil etilganligini olishimiz mumkin. Inson markazlarining asosiy vazifalari esa aholing ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularni to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir. Ijtimoiy xodimlar mana shu qatlamlarni yana jamiyatimizga qaytarish ularni ijtimoiylashuvini tiklash kabi jarayonlarni o'rganib chiqadigan shaxslar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/acts/-3436192>
2. <https://lex.uz/docs/-112314>
3. "Maktabda ijtimoiy ish" Abduraxmonova M.M.
4. "Ijtimoiy ta'minot" B.S Mamatov, B.I. Nurmuxamedova.